

Tong
yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 20 (67237)
2019-yil 20-may

yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092

YURTBOSHIMGA MAQTANISHGA ARZIGULIK QANDAY

ISHLAR QILYAPMIZ?

- deydi Prezident tashrif
buyurgan maktab
o'quvchilari

2-bet



Andijon viloyati, Bo'z tumanidagi 6-umumta'lim maktabida 2000-yilgi

Olimpiya o'yinlari championi, jahon championi, ikki karra Osiyo championi Muhammadqodir Abdullayev boks maktabi tashkil etildi.

Mazkur maktab yoshlarning boks bilan shug'ullanishlari uchun barcha zarur jihozlar bilan ta'minlandi.

4-bet

BAYRAMGA AYLANGAN KUN



YURTBOSHIMGA MAQTANISHGA ARZIGULIK QANDAY ISHLAR QILYAPMIZ?

– deydi Prezident tashrif buyurgan
maktab o'quvchilari

Tasavvur qiling-a, Siz tahsil olayotgan muktabga Yurtboshimiz tashrif buyursalar, bu kutilmagan voqea, ajoyib uchrashuvdan qanchalik hayajon va quvonchga to'lardingiz?! Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 238-umumta'l'm muktabi o'quvchilari o'zlarining ta'rif-u taassurotlari bilan aytganda, ana shunday baxtga sazovor bo'lganidan xabaringiz bor. Ushbu tengdoshlarlingiz bilan yaqindan tanishish istagida biz ham mazkur ta'l'm dargohiga kirib borar ekanmiz, Prezidentimiz tashrif davomida belgilab bergen reja-yu ishlarni amalga oshirishga kirishilib ketilganiga guvoh bo'dik. Xuddi shu kuni muktabda Yurtboshimiz tomonidan ishlab chiqilgan besh tashabbusga

oid tadbir ham o'tkazilayotgani ayni muddao bo'ldi. Biz har bir yo'naliish




bo'yicha ustoz-u o'quvchilar tayyorlashgan chiqish-u ko'rgazmalar va turli tanlovlarini kuzatib bir yo'l'a muktab hayoti va iqtidor egalari bilan tanishdir. Bilim maskanining 6-«A» sinf o'quvchisi Mubina Abdullimova musiqaga qiziqqani bois, ustoz



Dilorom Xudoyqulova tashkil etgan «Xor» to'garagiga qatnashar ekan. Qizaloq orzu-istiklari haqida so'zlay turib, Yurtboshimizning tashrifidan olgan

hayajonlarini ham yashira olmadı:

– Bir kun kelib, men o'qiyotgan muktabga Prezidentimiz keladilar, deb hech o'ylamagan edim. Ustozimdan bu xush-



xabari eshitganimda, rosa quvonib ketdim. Ammo, shu payt o'zimga savol berdim. Men Yurtboshimga aytishga, maqtanishga arzigulik qanday ishlar qilyapman? Ular bizning yanada sifatlari ta'l'm olishimiz uchun yelib-yugurbar ekanlar, biz ham munosib javob qaytarishimiz shart.

Muktab rahbari Saodat opa Malikova esa bugun ustozlarning ham boshi ko'kk'a yetganini aytdi:

– Uchrashuv davomida Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning ta'l'm dargohimizni ta'mirlashdan tortib, o'quvchilar uchun yangidan-yangi sharoitlar yaratishga doir bergen ko'satmalaridan mammunmiz. Ularning bu ishlar shaxsan nazoratimda bo'ladi, degan gaplari meni juda ta'sir-lantirdi.

Biz esa ma'nnaviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosarları Hilola Isroi洛va va Gulandom Ergasheva hamrohligida yana bolalar davrasiga oshiqdik. O'quvchilardan biri faxr va hayajon bilan «Bilasizmi, bizni muktabni-chi, endi Prezident kelgan muktab, deb gapirishyapti», desa, yana bir o'quvchi, «Kecha sevimli san'atkoriimiz Ozodbek Nazarbekov keldilar, bugun siz... Endi bizni muktab mashhur, bugun siz... Endi bizni muktab mashhur,

unga munosib bo'lismiz kerak», deydi g'urur bilan.

Yakuniga yetayotgan o'quv yilini ana shunday quvonch bilan tamomlayotgan bu o'quvchilarini ta'ildan so'ng bundan-da hayajonli damlar kutmoqda. Zero, ular kelgusi o'quv yilini to'la ta'mirlangan zamona viy ta'l'm dargohida boshlashadi.

Sayyora QODIROVA

«ONAJONIM TABIAT» tanloviiga



Hech o'ylab ko'rganmisiz, ona tabiatning ne'matlarini qachon taniy boshlaganmiz?

To esimizni tanigunga qadar, sevimi li yozuvchimiz Oybek ta'riflaganidek, tuprog'ida oltin gullaguvchi ona yerimida yetishtiriladigan mevalarni yeganmiz, sharbatlarini ichganmiz, poliz ekinlari-yu sabzavotlarni sevib iste'mol qilganmiz. Ba'zan xorijiy mevalarni maqtab yeyishlarining guvohi bo'laman. Ammo men Ona yurtimiz mevalarini hech qaysi davlat mevalariga alishmayman.

BOG'LARIMIZ SAXOVATI

Esimizni taniy-tanmay atrofimizdag'i ochilib turgan binafsha-yu chuchmoma, lolaqizg'aldog'-u lolalarning go'zalligidan zavqlanamiz. Kattalar, uzma, deyishsa-da, quloq solmag'anmiz. Ammo men daraxtlar-u gullarga, umuman, tabiatga ozor bermaslikni otanonandan o'rganganman.

Hovlimizdag'i mo'jazgina bog'imizga qarashni yaxshi ko'ramiz. Unda anor, gilos, olma, nok, tut kabi mevali daraxtlar bor. Bahor kelishi bilan ularni oqlaymiz, gullar ekamiz. Shuningdek, tuvaklarda ham gullarni parvarishlaymiz. Onam daraxtlarni parvarishlash, gullar landshaftini yaratishga juda qiziqadilar, ular atrof-muhitni ozoda saqlashimizga doimo e'tibor beradilar.

O'z bog'imizdan mevalami uzb yeyishning gashti bo'lakcha. Boborimiz «Mehnat qilib topganining qand-u asal totganing», deb bejizga aytishmaganiga guvoh bo'lamiz. Uyimizga kelgan mehmonlar ham hosilga kirgan mevalarimizni ko'rib, havas qilishadi. Dadam va oyimni qo'ligul insonlar, deb maqtashadi. Biz ham ular bilan faxrlanamiz.

Tabiatga qancha ko'p mehr bersak, bu mehr yuz chandon bo'lib qaytishiga o'z bog'imiz misolida amin bo'lganimni tengdoshlarimga ham so'zlagim keldi.

Kamola KARIMJONOVA,
Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi
14-umumta'l'm muktabining 7-«B» sinf o'quvchisi



Kumush ABDULQAYUMOVA,
poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 206-umumta'l'm
muktabining 3-«A» sinf o'quvchisi

Mana, bugun zo'r bayram,
Har yurakda havas bor.
Salom, aziz maktabim,
Xayr bog'chan, yaxshi qol!

Jajji bolajonlar ijrosida ushbu she'ni eshitgan har bir inson o'z bolaligini, bog'chaga borgan paytlarini xotirlasa, ajabmas.

Kuni kecha poytaxtimizning Olmazor tumaniagi «Uchar kema» nomli 464-maktabgacha ta'lil muassasasida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari ishtirokida bog'cha bilan xayrlashuv tadbirini bo'lib o'tdi.

Bayramda bolajonlar tarbiyachi opalar Dildora Kuliyeva yordamida tayyorlagan qiziqarli she'r, qo'shiq, sahna ko'rinishlarini ijo etdilar. Kechani ertak qahramonlari – Buratino va Malvina musiqa sadolari ostida ochib berdi:



Maktab degani bu nima o'zi, menga tushuntirib berenglar? – so'radi Buratino.

– Hozir bu yerda o'tirgan bolajonlar bizga maktab nimalgini tushuntirib berishadi,

deya bolajonlarga yuzlandi Malvina.

So'ng, kichkitoylar Xayrullo Abdullayev, Muslima Abduqodirova, Sevinch Qah-

ramonova, Mubina Sobirjonova, Mubina Sobirjonova go'yo Buratino va Malvina dars jarayonini ko'satishtirish orqali maktabga tayyor ekanliklarini namoyish

etishdi.

Tadbir davomida bolalar ingliz tilli o'qituvchisi Feruza opa Muhiddinova bilan birqalikda savol-javoblar o'yinini o'ynashdi.

O'g'il-qizlarning quvnoq raqsulari bayramga yanada ko'tarinki ruh bag'ishladi.

Xayrlashuv oqshomi o'z niyoyasiga yetar ekan, muassasa mudirasi Zilola opa Malikova jajji qaldirg'ochlarga a'lo baholarga o'qib, bilimli, zukko, fidoyi o'g'il-qizlar bo'lib ulg'ayinglar, deya niyat bildirdi. Ularga oq yo'l tilab, esdalik sovg'alari ulashdi.

Nigora ABDUNAZAROVA

MADANIYATMI YO MAYDA ILLAT?!

Navbatdagagi ma'naviyat darsida ustozimiz «Millat o'zi nima?», «Millatni millat qiladigan omillar qanday?» deya savolni o'rtaga tashladilar. Sinf-doshlarimiz birin-ketin qo'l ko'tarib, millat bu bir urug'ga mansub tub aholi, bir hududda yashovchi xalq millatdir kabi javoblarni aytishdi. Ustozimiz javoblarni tinglab, bir muddat mulohaza qildilar-da, so'ng javoblarga aniqlik kiritildilar:

– Bir to'da odamlar millat bo'lib qolmaydi. Millatni millat qiladigan bu bir xalqning asrular osha o'zgarmay, avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan tarixi, dini, tili va mentalitetidan kelib chiqadigan dunyoqarashi, ma'naviyati, milliy qadriyatları, an'ana va urf-odatlaridir, – dedilar.

Ustozning bunday fikr yuritishlari eng to'g'ri javob edi, nazarimda. Chunki sevimli adiblarimiz Abdulla Qodiri, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Tog'ay Murod, Pirimqul Qodirov, Tohir Malik singari ijodkorlarning asarlarini o'qir ekanmiz, o'zbek xalqining madaniyati qadimdan qanchalar yuskak bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Lekin bugungi internet zamoniida ommaviy madaniyatning turli ko'rinishlari, ko'z o'ngimizda sodir bo'layotgan voqealar yoshalrimiz tarbiyasiga tahdid solmoqda. Ayrim tengdoshlarimiz sharqona odob-axloq tamoyillariga, madaniyatiga zid bo'lgan odatlarni o'zlashtirishmoqda. Fikrimning isboti tariqasida o'zim guvoh bo'lgan ayrim voqealar xususida to'xtalsam.

QORA NIQOBLI O'QUVCHI

Bir kuni maktab shifokori qora niqob taqib olgan o'quvchini to'xtatib: «Bahorgi gripp yuqdimi, o'g'ilim, yur xonamga, ko'rib qo'yay», dedi. Bola maktab shifokoridan o'zini olib qochib: «Yo'g'ey, opa, hozir qora niqob taqish urf bo'lgan», dedi. Shifokor bu javobdan hayron bo'lib, o'quvching ortidan qarab qoldi...



YUZIGA TORT CHAPLANGAN BOLA

Yaqinda bir maktabda g'alati voqeaga guvoh bo'ldik.

Maktab hovlisida qochib borayotgan bir o'quvchini bolalar quvib, tutib olishdi. Ikki bola uni qo'lidan ushlab turdi, yana biri kattagina tort bo'lagini uning yuziga chaplab chiqdi. Qolgan bir gala bolalar tort chaplangan bolaga tuxum otishdi. Ketchup sepib, ustidan un sochib yuborishdi. Ikki o'quvchi bu voqeani qo'l telefoniga tasvirga tushirib oldi. Qorovul amaki o'quvchilarga qarab: «Nima qilyapsizlar? Un, tort degani – non-ku, uvol emasmi?!» degandi, o'quvchilar: «E, amaki, sindoshimizning tug'ilgan kuni bilan tabriklayapmiz. Chet elda hamma shunday qiladi», deyishdi. Yana bir o'quvchi qo'shimcha qilib: «Boshqa sinflar ham shunday qilishyapti. Nima, biz qilolmaymizmi?» deya javob berdi.



TAQLID QILMA, TAHLIL QIL!



Sinfda o'tirsam, bir do'stim qo'liga qora ruchkada cheksizlik belgisini chizayotgandi. «Bu qanday belgi?» deb so'rasam: «Seriallardagi sevishganlarning abadiy muhabbati ramzi – cheksizlik», deya javob qildi. «Buni senga nima daxli bor?» desam: «Shunchaki ularga o'xshamoqchiman», deya javob berdi. Bir tarafдан sindagi qizlarimiz serial tomosha qilganligi tufayli uy vazifalarini bajara olmagani uchun ko'chirib olishni so'rab, xayolimni bo'ldi. Afsuski, bunga o'xshash voqealar tez-tez takrorlanib turibdi. Ayrim tengdoshlarimiz buyuk bobokalonlarimizga, o'z ota-onalariga emas, kimlarga havas, taqlid qilishyapti? Aziz gazetxon do'stim, ayrim tengdoshlarimizning bunday noj'o ya xatti-harakatlariga faqat ommaviy madaniyatni sababchi qilib ko'rsatishimiz to'g'rimi? Dono bobolarimizning «Aybni avval o'zingdan qidir», degan gapi bor. Mana shu ibora ushbu savolimizga javob bo'la oladi, menimcha. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, bizning yurtimiz sharq mamlakatlaring madaniyat markazi, gavhari bo'lib kelgan. Shunga munosib bo'laylik. Ommaviy madaniyat o'z madaniyatimizga aylanmasin. Ota-bobolarimizdek hurmat topib yashaylik.

«MUSTAQILLIK – MENING TASAVVURIMDA» tanloving maktab bosqichlari davom etmoqda

Ma'lumki, yosh avlodning har jihatdan yetuk bo'lib kamol topishida ilm-u ma'rifat nechog'li ahamiyat kasb etsa, musiqa va san'atning o'rni ham shu qadar muhim. O'quvchilarning adabiyotga, tasviriy san'atga bo'lgan mehrini oshirish orqali ularni komil inson bo'lib ulg'ayishlariga hissa qo'shish maqsadida O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Toshkent shahar Kengashi tashabbusi bilan «Mustaqillik mening tasavvurimda» nomli ko'rik-tanlov e'lon qilingan edi.



Ayni kunlarda Toshkent shahar Xalq ta'limi bosh boshqarmasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, «Yoshlar ovozi», «Tong yulduzi» gazetalarini va yana bir qator tashkilotlar bilan hamkorlikda poytaxtimizdagi barcha umumta'lim maktablari o'quvchilari o'tasida o'tkazilishi ko'zda tutilgan mazkur tanloving maktab bosqichlari o'tkazilmoqda. Poytaxtdagi umumta'lim maskanlarida yoshlarning adabiyot va san'atga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, iste'dodini yuzaga chiqarish, shuning barobarida, bebabu ne'matimiz – yurtimiz mustaqilligi qadrini yanada yuksaltirish maqsadida e'lon qilingan mazkur tanloving maktab bosqichlari bo'lib o'tmoqda.


Jumladan, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 256-umumta'lim maktabining tasviriy san'atga mehr qo'yan iqtidorli o'quvchilari «Mustaqillik mening tasavvurimda» nomli ko'rik-tanloving tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha bellashdilar.

Shuningdek, Yashnobod tumanidagi 206-umumta'lim maktabida ham «Mustaqillik – mening tasavvurimda» nomli ko'rik-tanloving maktab bosqichi yakunlandi. Ushbu ko'rik-tanlovda maktab o'quvchilari faol qatnashib, diplom va esdalik sovg'alarini bilan taqdirlandi.

O'zMTDP Mirzo Ulug'bek tuman Kengashi raisi Sh.Nosirov, tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri Ya.Shodiyeva va maktab o'qituvchilaridan iborat hakamlar hay'ati ishtirokchilarning mavzu bo'yicha tayyorlagan ijod namunalarini baholab, g'oliblarni aniqladi. Shu kuni mazkur ko'rik-tanloving tuman bosqichini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish masalasi ham muhokama qilindi.

Yosh musavvirlarga tanloving tuman, shahar bosqichlari ham omad yor bo'lishiga biz ham tilakdoshmiz.

O'z muxbirimiz



VATAN QIYOSI

sak. Geosiyosat deganda muayyan bir mamlakatning o'rni, tabiiy boyliklari, iqlimi va boshqa geografik omillarining davlat tashqi siyosatiga ta'sirini ifodalash tushuniladi, – deya geografiya fani o'qituvchisi Odina Berdiqulova 10-sinf o'quvchilarga darsni tushuntirar ekan, ularni ham munozaraga, bahsga chorladi. O'quvchilar mamlakatimizning tabiiy boyliklarini tejab ishlatalish, tabiatga ozor bermaslik lozimligi zaharli chiqindilarni qanday yo'q qilish haqida so'zlardilar.

Odina opa darsni so'nggi pedtexnologiyalar asosida, ko'rgazmali qurollar va slaydlar yordamida o'tdi. Har bir yangi mavzuga o'zgacha yondashadigan, izlanuvchan us-tozning darslariga o'quvchilar sid-qidildan tayyorlanishadi. Bu esa o'quvchilarning geografiya fanini puxta o'zlashtirishlariga zamin yaratishi, shubhasiz.

**Shahlo MIRZAYEVA,
Samarqand viloyati, Tayloq tumani
manidagi 51-umumta'lim maktabi
Yoshlar ittifoqi yetakchisi**



BAYRAMGA AYLANGAN KUN

Maktabimizda deyarli har kuni biror tadbir o'tkaziladi, desam, ishonavering! Yurtboshimiz tomonidan beshta muhim tashabbus ilgari surilgach, to'garaklarga jalb qilinmagan, sport-u kitob bilan do'stlashmagan o'quvchi qolmadi, hisobi.

Hattoki ota-onalarni ham «5 ta muhim tashabbus» dasturi doirasida tashkil qilingan «Ochiq eshiklar» kuniga taklif etdik.

Shu kuni ta'lim dargohimizda katta bayram bo'layotganday edi, go'yo. Maktabimiz hovlisida raqqosa qizlar, bo'lajak rassomlar o'z iste'dodlarini namoyish etishgan bo'lsa, faoller zalida «Drama» to'garagi a'zolari tomonidan sahna ko'rinishlari ko'rsatildi. Shaxmat-shashka, taekvando, stol tennisni kabi to'garaklar a'zolarining chiqishlari esa barchani hayratlantirdi. Maktabimiz direktori Nabi Niyoziy, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinosi Dilnoza Mamatovaning jonkuylariklarini ko'rib, biz ustozlar ham chetda turmadik.

Rahbarligimdag 1-«A» sinf o'quvchilari bilan o'quv yilining so'nggi kunlari darslarimizdan birini kitob do'konida o'tkazishni rejaladik. Poytaxtimizning Darxon ko'chasida joylashgan ko'rkam va muhtasham «Kitob

olamix hamda shahrimiz markazidagi «Sharq ziyoroki» do'konlariga kirib borar ekanmiz, bu maskanlardan nur-u ziyo taralib turardi, go'yo. Sayohat darsimizda o'quvchilar o'zlarini qiziqqan mavzudagi kitoblar bilan tanishishdi va shaxsiy kutubxonalar uchun kitob xarid qilishdi. Shuningdek, sinfigizdagi mo'jazgina kutubxonamiz uchun talaygina kitoblar xarid qildik. Bolajonlarga, ayniqsa, topishmoq va maqollar, tez aytishlar jamlangan kitobchalar juda manzur bo'ldi. Endi ular yozgi ta'tilda bu kitoblarni miriqib mutolaa qilishadi.

**Novvoyoy PARDAYEVA,
poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi
226-umumta'lim maktabining boshlang'ich
sinf o'qituvchisi**

FAN OYLIGI MAZMUNLI O'TMOQDA

Bizning o'quv dargohimizda ham «Xorijiy tillar fan oyligi» mazmunli o'tmoqda.

Kuni kecha ta'lrim muassasasining 4-«D» sinfida o'tkazilgan ochiq darsda o'quvchilar bir necha shartlar bo'yicha o'zaro bellashdilar. Ayniqsa, o'quvchilar tomonidan «Xo'tikcha va chumchuq», «Kim dono?» singari ertaklarining inglez tilidagi talqin ko'pchilikka manzur bo'ldi. Darsni kuzatgan Manzura Nabiyeva, Zuhra Safarova va Malikabonu Ahmadalaliyevlar o'quvchilarning bilimlarini yuqori baholadi.

Zilola SIROJIDDINOVA,
Toshkent viloyati, Angren shahridagi
41-umumta'lum maktabining inglez tilli fani o'qituvchisi



Lesson 20

MEMORIAL DAY



Karim studies at 6th form. He went to see his grandparents who live in the next village. Because he knew that that day was the Memory and Appreciation Day.

His grandparents became very happy. Karim helped his grandmother with housework. And in the afternoon he took the sheep out to the valley to feed instead of his grandfather.

Vocabulary list:
Village – qishloq,
Appreciate – qadrismoq,
Help – yordamlashmoq,
Valley – yaylov.

Akmal KARSHIBAYEV,
The teacher of school № 6, in Zomin
district Jizzakh region

APPRECIATE QUOTES

«Make it a habit to tell people thank you. To express your appreciation, sincerely and without the expectation of anything in return. Truly appreciate those around you, and you'll soon find many others around you. Truly appreciate life and you'll find that you have more of it».

Ralph MARSTON

«Appreciation is a wonderful thing. It makes what is excellent in others belong to us as well».

VOLTAIRE

«Change your expectation for appreciation and the world changes instantly».

Tony ROBBINS

O'qituvchilar o'tasida «Eng ijodkor o'qituvchi», «Eng namunali ochiq dars», boslang'ich sinf o'quvchilari o'tasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish maqsadida o'quvchilarning o'zları o'qigan ertaklari asosida o'qituvchisi yordamida «Eng yaxshi sahna ko'rinishi», yuqori sinf o'quvchilari o'tasida «Eng yaxshi insholar», «Yosh gid», «Quvnoqlar va zukkolar», «Eng ijodkor o'quvchi» nominatsiyalari bo'yicha tanlovlardan tashkillashtirildi.

«Eng ijodkor o'qituvchi» nominatsiyasida Feruza Hojiquil qizi, «Eng namunali ochiq dars»da Halima Alimova, «Eng yaxshi sahna ko'rinishi» bo'yicha esa Nilufar Abdullayeva tomonidan 4-«D» sinf o'quvchilari istirokida «Zumrad va Qimmat» ertagi asosida sahna-lashirilgan sahna ko'rinishi g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Ustozlardan Madina Umarova va Gulchehra Zokirova tomonidan 8-sinf o'quvchilari o'tasida tashkil etilgan «Quvnoqlar va zukkolar» bellashuvida 8-«G» sinf o'quvchilari g'olib bo'lishdi. 10-«A» sinf o'quvchisi Kamola To'xtamurodova «Eng yaxshi insholar» tanlovida, 9-«G» sinfdan Shahzoda Mamadaliyeva «Eng yaxshi gid», Mashhura Bozorova esa «Eng ijodkor o'quvchi» nominatsiyalari g'olib bo'lishdi.

G'oliblar faxriy yorliqlar va yangi nashrдан chiqqan kitoblar bilan taqdirlanishdi.

Feruza TOHIROVA,
poytaxtimizning Sergeli tumanidagi
104-umumta'lum maktabining inglez tilli fani o'qituvchisi

THE SLAVE AND THE LION

It happened in ancient times that a slave named Androcles escaped from his master and fled into the forest, and he wandered there for a long time until he was weary.

Just then he heard a lion near him moaning and groaning and at times roaring terribly. And when he tried to get up, there he saw the lion coming towards him.

Instead of attacking him it kept on moaning and groaning and looking at Androcles, who saw that the lion was holding out his right paw, which was covered with blood and very much swollen. Looking more closely at it, Androcles saw a great big thorn pressed into the paw, which was the cause of all the lion's trouble.

Plucking up courage, he seized hold of the thorn and drew it out of the lion's paw, who roared with pain when the thorn came out, but soon after found such relief from it that he rubbed up against Androcles, and showed that he knew, that he was truly thankful for being relieved from such pain.

One day, a number of soldiers came marching through the forest and found Androcles. They took him prisoner and brought him back to the town, and he was condemned to death because he had fled from his master.

Now it used to be the custom to throw murderers and other criminals to the lions, and on the appointed day he was led forth into the arena.

The Emperor of Rome was in the royal box that day and gave the signal for the lion to come out and attack Androcles. But when it came out of its cage and got near Androcles, what do you think it did? Instead of jumping upon him, it rubbed up against him, and stroked him with its paw.

It was of course the lion which Androcles had met in the forest. The Emperor summoned Androcles to him. So Androcles told the Emperor all that had happened to him and how the lion was showing gratitude for his having relieved it of the thorn. Thereupon, the emperor pardoned Androcles and ordered his master to set him free, while the lion was taken back into the forest and let loose to enjoy freedom once more.

Axamjon AKBAROV

GULCHEHRANING ONASI

Dunyoda eng mehribon,
Dilbandiga girtiton.
Tinim bilmas hech qachon,
Gulchehranining onasi.

Mehri tog'dan-da baland,
So'zi shirin-shakar, qand.
Dili dillarga payvand,
Gulchehranining onasi.

O'zi juda ham kamtar,
Har bir so'zi oltin, zar.
Duodadir har mahal,
Gulchehranining onasi.

Omon bo'linsinlar doim,
Shod yursinlar iloyim.
Aslida, mening oyim –
Gulchehranining onasi.



BAXTLI BOLALIK

Musaffo osmon,
Yashaymiz shodon.
Vatan bag'rida,
Kuylaymiz har on.

Borliq zavqidan,
Yuramiz xandon.
Tinchlik qadriga,
Yetamiz har on.

Orzu olamin,
Yugurib shodon.
Neni istasak,
Bor katta imkon.

Yovuz yomondan,
Yursak ko'p yiroq.
Quchog'in ochar,
Dunyomiz har chog'.

Sening mehringda,
O'sib ulg'aydik.
Doim bor bo'lgan,
Baxtli bolalik.

Dilnura HAMROYEVA,
Qashqadaryo viloyati,
Shahrisabz tumanidagi
29-umumta'l'm maktabining
3-«B» sinf o'quvchisi



USTOZNI XOTIRLAB

Ustoz bilan so'nggi bor uylarida betob bo'lib yetgan vaqtleri
ko'rishgandik. O'shanda suhabatimiz 3 soatga cho'zilgandi. U kishi
«Tong yulduzi» gazetasiga haqida iliq fikrlar aytgandi. Mening ijodga
qiziqishimga katta turki bo'lgan, shu sabab, «Tong yulduzi»
tahririyatida ishlaganimdan faxrlanaman, degandi ustoz. Umid
qilamanki, kelajakda bu nasr ustoz aytganlaridek, juda ko'plab
yosh qalamkashlar uchun adabiyot tongining Yulduzi bo'lib xizmat
qiladi. Ustozning ruhlari shod bo'lsin!

Jamoliddin ABDULLAYEV



Adabiyot bu daraxtlarning kurtak yoyishi, qushlarning
ovozi, suvlarning shildirab oqishidir. Tabiatning bor
go'zalligini his qila olgan inson
haqiqiy ijodkor bo'lib yetishadi.
Ilhom manbai bo'lgan borliq
sinoatlarini boricha bayon
qilishga bo'lgan harakat
adabiyot olamiga ye-
taklaydi...

Yoshligimdan ki-
chik-kichik hikoya,
maqola, qatralar
yo'zib, adabiyotning
oltin qasriga qadam
qo'ydim. Ilk bor «Tong
yulduzi» gazetasida chop
etilgan «Mening bilim
maskanim» nomli maqo-
lamni ko'rganimda, juda
quvongan edim. Meni
ijod olamiga kirib ke-
lishimda ustozim Ham-
roxon Mamatzulovaning
hissasi beqiyos. Ular-
ning «Adabiyot zulmatdan yorug'likka olib chiquvchi
nur», degan o'gitlari menga ilhom bag'ishlagan, desam,
adashmayman.



ADABIYOT BILAN HAMNAFAS

Ustozlarim bergen bilimlar tu-
fayli juda ko'p tanlovorda
qatnashib, ko'plab muvaffaqiyatlarga erishdim. Massalan,
«Kamalak» yulduzlarini bolalar ijodiyoti festivalida,
«Yuksak ma'naviyatli avlod» tanloving respublika
bosqichida, «Zulfiyaxonim
qizlariga» ko'rik-tanlovida
ishtirok etib, garchand
g'olib bo'lolmasam-da,
respublika bosqichida
qatnashish baxtiga mu-
yassar bo'lganman.

Kelajakda andijonlik
shoiralar Nodirabegim
va Saida Zunnunova
singari o'z ijodim bilan
adabiyotimiz, yangi g'oyalari
bilan yurtimiz ravniga
hissa qo'shishga harakat
qilaman.

Sadoqat SOLIJONOVA,
Andijon viloyati, Jalaqduq tumani

Aka-uka GRIMMilar

BO'RI VA INSON

(Ertak)



Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qalin o'rmonda tulki bilan
bo'ri yashagan ekan.

Bir kuni tulki bo'riga insonlar haqida gapirib beribdi.
«Sen insonlarni bir marta bo'lsa ham ko'rganmisani?»,
so'rabi bo'ni tulkidan. Tulki: «Ha, ko'rganman», deb
javob qilibdi. Shunda qiziquvchan Bo'ri: «Do'stim
tulkivoy, sen menga ham insonlarni ko'ssata ola-
sanmi? Men ham ular haqida ko'proq bilishni
judayam istayman», debdi. «Albatta, men senga
ularni ko'ssatanman, men bilan yur», deb javob
qilibdi tulki. Tulki va bo'ri o'rmonda biroz yurib,
bir daraxt tagiga o'tirishibdi. Shunda keksa
bir odam ularning yonidan o'tib qolibdi. Bo'ri
tulkidan shoshilgancha: «Bu odammi?» deb
so'rabi. Tulki: «Yo'q, bu eski davrning odami»,
deb javob beribdi. Undan keyin maktabga
ketayotgan bir bolakay o'tibdi. Bo'ri yana
tulkidan: «Bu odammi?» deb so'rabi. Tulki:
«Yo'q, bu kelgusi davming odami bo'ladi», deb
javob beribdi. Shu payt ularning yonidan
yelkasiga miltiq osgan bir odam o'tibdi.
Tulki: «Bu odam, uning yoniga bor va sa-
lom berishni unutma. Men uya borishim
kerak, bolalarim kutyapti», debdi-da,
chopib ketibdi. Bechora bo'ri esa
ovchining o'jasiga aylanibdi.

Shunday qilib, ayyor tulki laqma
bo'rinii yana hiyla yo'li bilan aldabdi.

Nemis tilidan Shohsanam
QODIROVA tarjimasi,
Farg'ona viloyati, Rishton
tumanidagi 19-umumta'l'm
mktabi o'quvchisi

Yaqinda Furqat tumanidagi Bolalar va o'smirlar sport maktabida o'smirlar o'rtaida boks bo'yicha xalqaro musobaqa bo'lib o'tdi. Musobaqada o'zbekistonlik bokschilar bilan bir qatorda, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston davlatlaridan 336 nafar bokschilar kuch sinashdi. Shogirdim Ozodbek Aliyev 2006-2007-yilda tug'ilgan o'smirlar o'rtaida 57 kg vazn toifasida qatnashib, 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

OZODEBK G'OLIB BO'LDI



Boks to'garagimiz mashg'ulotlariiga bir yildan buyon muntazam qatnasha-yotgan Ozodbek juda tirishqoq bola. To'garakka 60 nafardan ko'p o'quvchilar qatnaydi. Asrorbek Haydaraliyev, Behruzbek G'ulomjonov, Diyorbek Tursunov, Zikrillo Muhammadaliyev kabi shogirdlaridan ham umidim katta. Ozodbek kelajakda Bektemir Meliqo'ziyev, Shaxram G'iyyosov, Hasanboy Do'strmatovday bokshchi bo'lismi orzu qiladi. U, shuningdek, ustozlardan ingliz va rus tillarini ham puxta o'rganyapti. Chunki u sportchi agar boshqa xalqlarning ham tillarini bilsa, xalqaro musobaqalarda bernalol tengdoshlari bilan tillashishi, yangi do'star orttishi mumkinligini yaxshi biladi.

Yaqinda boks bo'yicha Furqat tumanı birinchiligidä ham shogirdim 2-o'rinni egallashga musharraf bo'ldi. Men sportga oshno o'quvchilarim muvaffaqiyatlari yanada yuksak bo'lismi istayman. Shogirdlarima g'alabaga tinimsiz mashqlar, qat'iyatilik orqali erishilishini uqtiraman.

Jo'rakeb BEGMATOV,

Farg'on'a viloyati, Beshariq tumanidagi 44-umumta'l'm maktabining jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi, boks bo'yicha sport ustasi

BOLAGA KITOB BERING

Hozirgi kunda mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi madaniyat va ma'rifat sohasida ham tub islohotlar amalgam shirilmoqda. Ayniqsa, kitob mutolaasi, kitobxonlikni targ'ib qilish borasidagi sa'y-harakatlar hozirdanoq o'z ijobiy samarasini bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2019-yil 19-mart kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida 5 ta muhim tashabbus ilgari surilgan bo'lib, to'rtinchi tashabbus aynan o'quvchi-yoshlar ma'nnaviyatini yuksaltirish, ular o'rtaida kitobxonlikni keng targ'ib qilishga yo'naltirilgan.



Prezidentimiz tashabbuslari bilan davlat va jamoat arbobi, tashkilot va korxonalar rahbarlari, taniqli shoir va yozuvchilar tomonidan o'zlar tahsil oлgan maktablarga kitoblar sovg'a qilinayotganligi yoshlar kelajagi uchun uzoqni ko'zlab qilingan samarali ishlardan debochasidir.

Yaqinda bilim maskanimizning sobiq o'quvchilar tomonidan maktab kutubxonasiga kitob sovg'a qilish tadbiri bo'lib o'tdi. Shu maktabni 1991-yilda tamomlagan bitiruvchilar - Respublika bolalar kutubxonasi direktori D.O'rolov va Respublika bolalar kutubxonasi bo'lim boshlig'i Sh.Normatov tomonidan maktab o'quvchilariga 100 dan ortiq o'zbek va jahon bolalar adapiyotlari taqdim etildi. Yosh avlodning ma'nnaviy-intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatan, xalqiga muhabbat hamda sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotganligini ta'kidlashdi.

Uchrashuvda 14-umumta'l'm maktabining ona tili va adapiyot fani o'qituvchisi A. O'rolov, maktab kutubxonachisi G. Boymatova so'zga chiqib, kitobxonlikni targ'ib qiluvchi fikrlari bilan o'rtoqlashdilar.

Anvar ILYASOV,
Samarqand viloyati, Bulung'ur tumanidagi
14-umumta'l'm maktabi direktori

Mehnat bilan inoqlashsang,
Tan og'rig'i ko'rmasan.

KELAJAKKA BO'LGAN ISHONCH

Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi 2-umumta'l'm maktabi «Obod mahalla» Davlat dasturi asosida kapital ta'mirdan chiqarildi va foydalanishga topshirildi.

«Buyuk kelajakka qat'iy ishonch bilan!» shiori ostida faoliyat yuritayotgan mazkur bilim maskani o'quvchilari 2018-2019-o'quv yilida ko'plab maqtashga arizigulik natijalarga erishdi.

Keling, bu haqda batafsilroq to'xtalaylik.

Maktab direktori Dilbar opa To'xtayeva o'zi ham tinmay, boshqalardan ham shunday ishlashni talab qiladigan rahbarlar sirasiga kiradi. Ustoz tomonidan «Mamlakatimizning mingyllik rivojlantirish maqsadlaris» g'o-yalariga asoslanib, ekologik barqarorlikni ta'minlash, bioxilma-xilliklarni asrasht maqsadida «Cho'l hududida ekologik muvozanatni saqlashda saksovul butazorlarining o'mi» loyihasi tatbiq etildi. Mazkur loyihada Dilbar opa «Suv elektroenergiya iqtisodiyoti bo'yicha» videoroliklari bilan ishtirok etdi.

Maktabda kulolchilik va teriga ishlov berish hamda milliy miniatyura asarlarini teri va qovoqlarga chizish bo'yicha Lobar Jabborova boshchiligidagi to'garak faoliyati ham yo'lga qo'yilgan. Ustozning eng iqtidori shogirdlaridan 11-sinf o'quvchisi Asalxon Quvvatova, 10-sinf o'quvchisi Alisher Aktamovning ijodiy ishlari kishi ko'zini quvnatadi.

Lobar opaning izlanishlari-yu mehnatlari zoye ketmadi. U «Eng yaxshi ustoz» nomli eng yaxshi innovatsion ko'rgazmalar tanloving shahar bosqichida 1-o'ringa munosib ko'rildi.



Ta'l'im-tarbiya jarayoniga birdekk e'tibor qaratadigan bu ta'l'im maskanida sportga oshno tutin-ganlar ham ko'p ekan. E'zoza Eganova 2002-2003-yillarda tug'ilgan qizlar o'rtaida O'zbekiston championatida



2-o'rinni egallagan bo'lsa, 8-«A» sinf o'quvchisi Umida Asadova O'zbekiston championatida sportning yugurish turi bo'yicha 2-o'ringa, Behruz Amonov aql gimnastikasi sanalangan shaxmat bo'yicha O'zbekiston championatida 14 yosh-lilar o'rtaida 2-o'ringa sazovor bo'lismi. Bobur Isomov esa joriy yilda Qozog'iston Respublikasida o'tkazilgan Osyo championatida 2-o'rinni egallab, murabbiyi hamda ustozlari ishonchini oqladi.

Bir donishmanddan, «Siz shunchalar dahosizki, hech kimsha aqlli va hunar bobida sizga teng kela olmaydi. Nechun shu ishlaringiz bilan maqtanib, kishilar oldida obro' olmaysiz?» deb so'rashganida, «Ustozning bor obro'si uning shogirdlari dadir. Agar ular uquvli bo'lismi, mening ishlari davomchisi bo'lishsa, bundan ziyod obro'-e'tibor menga darkor emas», deya javob bergen ekan. Mazkur bilim maskanidagi o'qituvchilarining ham shogirdlaridan umidi katta. Shogirdlar esa ustozlari yuzini yorug' qilish maqsadida tinmay izlanishdalar.

Ozoda TURSUNBOYEVA

KATTALAR HAM MULTFILM KO'RADIIMI?

Bu savolimga, yo'g'-ey, deya javob berishga shoshilmang! Menimcha, multfilm tomosha qilish katta-yu kichikka birday zavq bag'ishlaydi. Axir bolaligida kim ham multfilm ko'rishga qiziqmagan, deysiz?!

Ota-onamizning gap-so'zlaridan bilamizki, ular bolaliklarida «Senimi, shoshmay tur!», «Zumrad va Qimmat», «Karlson va bolakay» kabi multfilmlarni sevib tomosha qilishgan ekan. Hozirgi davrdagi ba'zi haddan ziyod rangli va bachkana tomoshalarni esa ular uncha ham xushlashmaydi. E'tibor bergen bo'sangiz, chindan ham ularning ayrimlari ongimizni keraksiz ma'lumotlar bilan to'ldirib yuboradi. Ba'zi multfilm qahramonlarining tortishuvlari bizga ham ta'sir ko'satadi. Shu bois, multfilmlarni ham saralab ko'rishga odatlanishimiz lozim. Televizor qarshisiga o'tirib olib, ularni ketma-ket tomosha qilavermay, orada kitob o'qishni ham unutmaylik!

Shahzoda TO'LQINOVA,
poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 255-umumta'l'm maktabining
7-«A» sinf o'quvchisi



**BO'SH O'TIRMAY,
BOSH QOTIR!**

«BOLALAR SPORI» TOPQIRLIK MASHQLARI

Aylanma krossvod: Javoblarni raqam atrofiga soat milli yo'naliishiда yozing.

1. «Umid nihollarix» musobaqalari o'tkazilgan shaharlardan biri. 2. Aqliy sport o'yini. 3. Tai-landda shaxmatning tezkor turi bo'yicha qizlar o'ttasida o'tkazilgan Osiyo championatida oltin medalga sazovor bo'lgan vatandoshimiz. 4. Badiiy gimnastika anjomi turi. 5. Boksdagi holat. 6. Terma jamoaga tavsiya etilgan sportchi. 7. O'zbek kurashida sof g'alabaga berilgan baho. 8. Sport o'yini turi. 9. Termiz shahridagi stadion. 10. Musobaqa q'olib aniqlanadigan so'nggi o'yin. 11. Poyga musobaqalarining so'nggi marrasi. 12. Sport musobaqalari o'tkaziladigan inshoot. 13. Yengil atletika musobaqasida olisga uloqtirish anjomi. 14. Sport sovrini. 15. Futbol maydoni qismi. 16. Og'ir atletika sporti. 17. Teng natija bilan tugallangan bahs. 18. Tennis sporti anjomi. 19. Dzyudo kurashi uchun mo'ljallangan elastik gilam. 20. Yutuq, muvaffaqiyat.

Topshiriq: Shaklning ichki qismalaridagi tasvirlarda qaysi sport turlari ifodalanganligini toping.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

Ma'lumki, Andijon viloyatidagi buniyodkorlik ishlari yangi-yangi turarjoy binolari, istirohat bog'lari, obod ko'chalar, raxon yo'llar, xiyobonlar, bolalar va o'smirlar uchun sport inshootlari - hamma-hammasi aholimizning farovon hayoti uchun xizmat qilmoqda.

ANDIJONDA HAYVONOT BOG'I OCHILDI

Viloyatimizning so'lim, bahavo go'shasi sanalgan «Bog'i Boburiy» istirohat bog'i yaqinida ulkan hayvonot bog'i tashkil etildi. Bu xabardan, ayniqsa, bolajonlarning quvonchi cheksiz bo'ldi. Albatta, bizning Andijon shahar 44-umumta'l'm maktabi o'qituvchisi va o'quvchilari birinchilardan bo'lib hayvonot bog'i tashrif buyurdik. Bolalarning quvonchini aytishga til ojizlik qiladi. U yerdagi xilma-xil yovvoyi hayvonlar, parrandalar, suv osti olamining ajoyib-u g'aroyib mavjudotlari, bog' ma'muriyatni tomonidan tashkil etilgan turli, qiziqarli attraktion o'ynilar o'quvchilarimizga olam-olam quvonch baxsh etdi.

Salimaxon KARIMOVA va Kamila MULIKOVA,
Andijon viloyati, Andijon shahar 44-umumta'l'm maktabi o'qituvchilar



Andijon viloyati, Xo'jaobod tumanidagi 5-umumta'l'm maktabining boshlang'ich sinf o'quvchilari ham ustozlari Qunduzxon Arzikulova va Nozimaxon Najimovalar boschchiligidagi Andijon hayvonot bog'iiga sayohat qilishi.



8

20-may 2019

**Tong
yulduzi**

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADIROVA

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan
otgan.

TAHIR HAYATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Dilshod KENJAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rmosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Axtamqul KARIMOV

Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMU bosma-
xonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli
chop etilishiha bosmaxona mas'ul.
Manzilimiz va bosmaxona manzili;
Toshkent shahri, Navoy ko'chasi,
30-uy, Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi1929@mail.ru
telegram: lme/tongyulduz
Adadi - 14139
Buyurtma - V 3422

Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi
uchun obunani rasmiylashtirgan
tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxida.
Gazeta haftaning dushshana kuni
chop etladi.
Topshirish vaqt - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08